

YOZYAVON TUMANI IQTISODIYOT KO'RSATKICHI

Madaminov.Z.

Farg'ona Davlat Universiteti Geografiya Kafedirasi Dotsenti v.b.PhD
zafarjonmadaminov@gmail.com

Jabborova Marhabaxon Asqarali qizi

Farg'ona Davlat Universiteti geografiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Yozyovon tumaning iqtisodiyotini o'rganishga bag'ishlangan. Yozyovon tumaning iqtisodiyoti va ishlab chiqarish korxonalari, turli xil ma'lumotlar bilan boyitilgan.*

Kalit so'z: *Yozyovon, iqtisodiyoti, asosiy ma'lumotlar, ishlab chiqarish, qurilish mollari, g'isht blok zavotlari, paxta zavodlari, oziq-ovqat, paxta ishlab chiqarish korxonalari, asalarichilik.*

Kirish: Farg'ona viloyatida o'n beshta tuman mavjud. Yozyovon tumani 1952-yil 16-aprelda tashkil etilgan. Tumanning katta qismiga paxta-g'alla ekiladi. Turli qurilish mollari, g'isht blok zavodlari, paxta zavodi, oziq-ovqat va boshqa ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Yozyovon tumani viloyatning Toshloq, Qo'shtepa, Oltiariq, Buvayda tumani, Namangan viloyatining Jomasho'y tumani, Andijon viloyatining Ulug'nor, Bo'z tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0.41 ming km kvadrat, aholisi 119 ming kishi. Farg'ona viloyati statistik boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra 2022-yil yanvar - dekabr oylari holatiga ko'ra Yozyovon tumani korxonalari 195.6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Shundan aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari - 1685.9 ming so'mga, Istemol mahsulotlari ishlab chiqarish-182.2 mlrd so'mga,

Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari-1570.4 ming so'mga, Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish-75.7 mlrd so'mga, Oziq-ovqat mahsulotlar-106.4 mlrd so'mga, Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari-248 ta. Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari 44 tani tashkil etadi. Strategik islohotlar agentligi xodimlari Farg'ona viloyati Yozyovon tumanida bo'lib, tumanning salohiyatini o'rganish bilan birga iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlagan holda tuman hokimligi bilan birgalikda hududni rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqdi. Yozyovon tumani 5-toifaga kiradi, tumanning umumiy maydoni - 407 km kvadratni, tumanda doimiy aholi soni 120.2 ming nafar. Yozyovonda 33 ta mahalla mavjud. Tuman byudjeti daromadlari miqdori - 54.8 mlrd so'm, xarajatlar miqdori esa 106.8 mlrd so'm tashkil etadi. Yozyovon tumani Qoratepa mahallasi hududida hozirda foydalanilmay turgan 5.17 gektar maydonda joylashgan Quva paxta zavodiga qarashli bo'lgan paxtani qabul qilish punkti hududida yangi kichik sanoat zonasi tashkil etish taklifi tayyorlandi. Ushbu sanoat zonasida 40 tadan ortiq kichik va o'rta ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirib, qiymati 96 mlrd so'mlik jami 35 ta loyihalar amalga oshadi, natijada dastlabki yilda 32 mlrd so'mlik qo'shimcha sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi, 1.4 mlrd so'm byudjetga tushum bo'ladi va 1000 dan ortiq ish o'rinlari yaratiladi. Tumandagi 72 ta paxta-g'allachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarining maydonlarida kamida 50-100 boshqa mo'ljallangan chorvachilik komplekslari tashkil etilib, nasilli qoramol boqishni yo'lga qo'yish imkoniyati mavjud. Ammo fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan yerlarda chorvachilik komplekslari tashkil qilish maqsadida yengil konstruksiya qurish uchun ruxsat mavjud emas. Tayyorlangan taklifga ko'ra ushbu fermer xo'jaliklari ekin yeridan tashqari maydonlaridan kichik fermerlar qurish uchun 20s. Yer



maydoni ajratishga ruxsat berish nazarda tutilmoqda. Buning natijasida 200 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi. Tumanga yangi 2000 dan ortiq qoramollar kirib kelishi ta'minlanib yillik 200 tonna go'sht yetishtiriladi va byudjetga qo'shimcha 1.5 mlrd so'm mablag'lar yo'naltirilishga erishiladi. Tumandagi "soyyoni" mahallasida yashovchi tadbirkor asalarichilik klasteri MCHJ hamda asalarichilik maktabi tashkil etilgan. Bugungi kunda ushbu klister faoloyatini kengaytirishga ehtiyoj mavjud. Ushbu tadbirkorlarda hozirda 100 ta quti, 250 ta oila asalari mavjud bo'lib, yiliga o'rtacha 1200 kg atrofida asal yetishtiradi. Tadbirkor ushbu yo'nalish bo'yicha tumanda o'nlab shogirtlar yetishtirib chiqargan. Ammo bo'sh joy bo'lmaganligi sababli ushbu faoliyat bilan faqat yashash xonadonida shug'ullanib keladi. Shu sababli faoliyatni kengaytirish imkoniyti cheklanib qolmoqda. Shu bilan birga tumanda asalarichilik bilan shug'ullanuvchi fuqarolarda 2000 dan ortiq qutida 4500 dan ortiq asalari oilalari mavjud bo'lib, yiliga jami 12000 kg asal yetishtiriladi. Mazkur holat bo'yicha ishlab chiqarilgan taklifga ko'ra, 'Yozyovon' agro asalarichilik klasteri MCHJ faoliyatini kengaytirish maqsadida tumandagi cho'l hududidan o'zlashtirilmagan yoki aylanmadan chiqib ketgan yerlardan 20 gektar maydonni 30-yil mudatga ijara shartnomasi orqali ajratish nazarda tutilmoqda. Tadbirkor o'z navbatida mazkur yer maydonini o'zlashtirib 3000 tup pavloniya ko'chatlari ekish hamda ushbu hududda asalari boqish tashabbusini ilgari surmoqda. Tayyorlangan takliflar amalga oshirilgan taqdirda, tumanda xizmat ko'rsatish sohasida qo'shimcha 20 dan oshiq ish o'rni yaratildi. Shuningdek, Yozyovon tumanidagi 'Yoshlik' va 'Qorasoqol' mahallalarida 860 dan ortiq 7-17 yosh oralig'idagi bolalar istiqomat qiladi. Biroq bu yer umumiy o'rta ta'lim maktabi mavjud emas. Bunday holat o'quvchilarni 4-5 km uzoqlikdagi qo'shni mahallalarda joylashgan 1,13,14,15,39 - umumiy ta'lim maktablariga qatnab ta'lim olishga sabab bo'lmoqda. Mazkur masalaga yechim sifatida tayyorlangan taklifda ushbu hududda hozirgi kunda foydalanilmay turgan va auksion savdolariga chiqarilgan mineral o'g'itlar saqlash omborini tuman hokimligi tasarrufiga o'tkazib, o'rnida maktab qurilishiga ruxsat berish nazarda tutilmoqda.

Tayyorlangan barcha tashabbuslarni amalga oshirishga doir strategik islohotlar agentligi va tuman hokimligi tomonidan 'Farg'ona viloyati Yozyovon tumanida iqtisodiy o'sishni jadal rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirish ishlari olib borilmoqda. Tumanda ayjuvozlar ham bor. Yozyovon tumani 1959-yil 14-dekabrda Toshloq tumani bilan birlashtirilib Oxunboboyev nomi berilgan, 1962-yil 24-dekabrda Oxunboboyev tumaniga Marg'ilon tumani ham qo'shilgan. 1980-yil 27-dekabrda Yozyovon tumani qayta tuzildi.

Yozyovon tumanida ikkita shaharcha (Yozyovon va Qoratepa), 16 mahalla fuqarolari yeg'ini (Guliston, Yozyovon, Taraqqiyot, Qorasoy, Ishtirhon, Xonobod, Cho'liguliston, Yangi atom, Yangiobod, Qatortol, Qorasoqol, Qoratepa, Toshhovuz, Ittifoq, Beruniy, Bahor, Tegirmonboshi) bor. Markazi Yozyovon shaharchasi. aholisi, asosan o'zbeklar, shuningdek qirg'iz, tojik, rus, tatar, qoraqalpoq va boshqalar, millat vakillari ham yashaydi. Yozyovon tumani asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib, yetakchi tarmog'i paxtachilikdir. Sug'oriladigan yerlar 18,5 ming gektar, shu jumladan 7,8 ming gektar paxta, 6,9 ming gektar donli ekinlar, 2 ming gektardan ziyod yerga yem-xashak ekinlari, 424 gektar sabzavot, poliz ekinlari, 924 gektar meva va tokzorlar bilan bant. Yozyovon tumani fermer va shaxsiy xo'jaliklarda 17 mingdan ziyod 1000 ta qoramol, 18,6 ming qo'y va echki, 270 dan ziyod yilqi, 10,5 ming parranda, 800 ga yaqin asalari uyasi bor. Pillachilik va dehqonchilik rivojlangan. Yozyovon tumanida 3 ta g'isht zavodi, 5 ta qurilish ta'mirlash ustaxonasi, avtokorxona, 910 ta kichik va xususiy korxona bor. Yozyovon



tumanida Farg'ona-Namangan, Qo'qon-Andijon avtomobil yo'llari va A373 magistral yo'li o'tgan. Yozyovon tumanida 37 ta umumiy ta'lim maktabi, 1 ta kollej, 2 ta litsey, sport maktabida 18,3 ming o'quvchi ta'lim olmoqda, 35 ta jamoat kutubxonasi, muzey, 20 dam ziyod dorixona, 801 ta o'rinli 8 ta kasalxona, 4 ta poliknika, 23 ta tibbiy shahobcha mavjud. Aholiga 230 savdo shahobchasi xizmat ko'rsatmoqda. 1952-yildan "Markaziy Farg'ona" tuman gazetasi chiqdi.

Xulosa: Yozyovon tumanida deyarli hamma korxona va zavodlar mavjud. Asosan paxta ishlab chiqarish korxonalaridir. Tumanning iqtisodiyoti 2022-yilda yanvar oyi holatiga Yozyovon tumani bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 52,9 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108 foizni tashkil etgan.

Shundan: Moliya xizmatlari-3,9 mlrd so'mgacha,
Transport xizmatlari-5,4 mlrd so'mgacha,
Savdo xizmatlari-35,5 mlrd so'mgacha,
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari-3,3 mlrd so'mgacha,
Ta'lim xizmatlari-0,3 mlrd so'mgacha,
Sog'likni saqlash sohasidagi xizmatlari-0,3 mlrd so'mgacha,
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar-0,3 mlrd so'mgacha,
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari-0,2 mlrd so'mgacha,
Ijara xizmatlari-0,3 mlrd so'mgacha,
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmati-1,3 mlrd so'mgacha,
Bundan tashqari: kichik tadbirkorlik subyektlari-45,5 mlrd so'mgacha,
Aholi jami boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari-446,3 ming miqdorgacha oshganini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yozyovon_tumani
<https://farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13536-zyozyovon-tumanida-bozor-xizmatlari-hajmi-qanchaga-yetdi.html>
<https://asr.gov.uz/news/11718>
https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yozyovon_tumani
<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/15488/11084/10849>